NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

UO‘ K: 811.512.133’38:398.23

BADIIY NUTQDA SO‘ Z O‘ YINLARINING EKSPRESSIV-ESTETIK IMKONIYATLARI

Husaynova Mahliyoxon Ma’rufjon qizi
Farg‘ ona davlat universiteti o‘ qituvchisi
mahliyoxonhusaynova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy nutqdagi so‘ z o‘ yinlarining ekspressiv va estetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. So‘ z o‘ yinlari matn mazmunini boyitadi, badiiy tasvirni kuchaytiradi va tinglovchi e’tiborini jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning fonetik, leksik va semantik imkoniyatlardan foydalanishi badiiy nutqning stilistik rang-barangligini ta’minlaydi. Tadqiqot doirasida turli badiiy asarlar misolida so‘ z o‘ yinlarining uslubiy va estetik funksiya bajarishiga doir misollar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘ zlar: *askiya, fonostilistik o‘ yin, hajviy nutq, badiiy nutq, kinoya, intonatsiya.*

ЭКСПРЕССИВНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИГРЫ СЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ

Аннотация: *В данной статье анализируются экспрессивные и эстетические возможности игры слов в художественной речи. Игры слов обогащают содержание текста, усиливают художественные образы и являются важным средством привлечения внимания слушателя. Кроме того, использование фонетических, лексических и семантических ресурсов обеспечивает стилистическое разнообразие художественной речи. В рамках исследования рассматриваются примеры из различных художественных произведений, демонстрирующие стилистические и эстетические функции игры слов.*

Ключевые слова: *шутка, фонетико-стилистическая игра, юмористическая речь, художественная речь, ирония, интонация.*

EXPRESSIVE AND AESTHETIC POTENTIAL OF WORDPLAY IN ARTISTIC DISCOURSE

Abstract: *This article examines the expressive and aesthetic potential of wordplay in artistic discourse. Wordplay enriches textual content, enhances artistic imagery, and serves as an important tool for attracting the audience’s attention. Furthermore, the use of phonetic, lexical, and semantic resources ensures the stylistic diversity of artistic speech. Within the scope of the study, examples from various literary works are analyzed to illustrate the stylistic and aesthetic functions of wordplay.*

Keywords: *joke, phonostylistic play, humorous speech, artistic discourse, irony, intonation.*

Kirish

Har qanday til hodisasi muayyan matn tarkibiga kiritilar ekan, lisoniy vosita va usullardan mohirona foydalanishni taqozo etadi. So‘ z o‘ yinlari badiiy matnning ajralmas bir uzviy bo‘ lagi sifatida ana shunday stilistik talab va poetik mahorat bilan vujudga keladi. Bunday vositalar til sathining barcha pog‘ onasida mavjud bo‘ lib, ular qatoriga fonostilistik-fonografik, leksik-semantik, sintaktik-stilistik birliklarni kiritishimiz mumkin.

Ma’lumki, badiiy nutq, ko‘ pincha, ko‘ chma ma’nolilikka asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki badiiy asarda ijodkor o‘ zi ko‘ rgan va kuzatgan hayot manzaralarini badiiy jihatdan qayta ishlab, jonli va ta’sirchan tilda ifodalashga harakat qiladi. Natijada turli-tuman badiiy-tasviriy va hissiy-ta’siriy vositalaridan foydalanish imkoniga ega bo‘ ladi. Shuning uchun bunday tasviriy vositalar, jumladan, so‘ z o‘ yinlari badiiy nutqning mazmun-mundarijasini shakllantiruvchi ajralmas bir qismi sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili

So‘ z o‘ yini kontekstida ifodaning umumyashirin mazmuniy ko‘ rinishlari bilan aloqador axborot ifodalanadi. Ifodaning umumyashirin mazmuni quyidagi ko‘ rinish va uslubiy shakllarga ega: «*implikatsiya, tagma’no, allyuziya, presuppozitsiya, nomatniy ma’no* (*«zatekst»*)» [1]. Tilshunos olim I.V.Arnoldning ta’kidlashicha, *tagma’no, ellipsis, allyuziya, semantik murakkablashish va matniy yashirin mazmunning o‘ zi* umumyashirin mazmun shakllari hisoblanadi [2].

So‘ z o‘ yinlari o‘ zbek xalq og‘ zaki ijodi ko‘ rinishlarida keng istifoda etiladi: latifa va askiyalar, payrov va chandishlar, qo‘ shiq va dostonlar, ertak va hikoyalar, xalq dramalarida ishlatiladi. Shuningdek, jamiyatimizning barcha

sohalarida so‘ zlovchilar u yoki bu darajada, albatta, so‘ z o‘ yini, hazil-mutoyiba va askiya elementlaridan foydalanadi. Bu xalqimizning milliy mentaliteti bilan bog‘ liq nutqiy etiketga aylangan.

Tadqiqot metodologiyasi

So‘ z o‘ yini, ko‘ pincha, alohida ijodkor yaratgan asarlar matni asosida tadqiq etiladi, ammo bu hodisaning muallif ijodida voqelanishi, muallif badiiy-estetik maqsadini ifodalashda tutgan o‘ rnini mukammal bir hodisalar tizimi sifatida o‘ rganish imkonini beradigan tizimli mezonlar haligacha to‘ liq ishlab chiqilmagan. So‘ z o‘ yinlari hodisasi badiiy asar tilining muhim elementlaridan biri sifatida ham to‘ liq o‘ rganilmaganligi o‘ zbek tilining mazkur kommunikativ sohasida ularning namoyon bo‘ lishini, matn mazmuniga ta’siri va uni anglashdagi funksiyasini tizimli ravishda o‘ rganishni taqozo etadi.

So‘ z o‘ yini badiiy asar tilining muallif tomonidan ilgari suriladigan mavzularning g‘ oyaviy, badiiy-estetik qirralarini ochib beruvchi muhim til unsuri sifatida ham tadqiqotchilarni haligacha o‘ ziga jalb qila olgani yo‘ q. Ushbu fikrlarimizni tadqiqotchi T.Butunbayeva ham ma’qullab, so‘ z o‘ yinini stilistik figuralardan biri sifatida asosan, omonimiya va paronomaziya hodisalari asosida yuzaga keladigan badiiy tasvir vositalaridan biri ekanligi, turli mazmundagi pragmatik ma’nolarni yuzaga chiqarish, kitobxonni o‘ ylashga, tafakkur qilishga undovchi poetik usullardan biri sifatida kelgusida monografik tarzda tadqiqotlar olib borishga asos bo‘ la olishini alohida ta’kidlaydi [3].

Badiiy matnga xos so‘ z o‘ yinlarini o‘ rganishda asarlarning janriy xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning mavzu yo‘ nalishiga ham alohida e’tibor qaratish bu hodisaning badiiy til unsuri sifatidagi o‘ ziga xos tomonlarini aniqroq tahlil etish va muayyan nutq ko‘ rinishidagi barcha badiiy-estetik funksiyalarini to‘ liqroq anglash imkonini beradi. Tahlilga tortiladigan badiiy nutqqa xos matnlarni janr va yoritilayotgan mavzu jihatdan guruhlashtirishda u yoki bu ijodkorning badiiy asar yaratishdagi o‘ ziga xos mahorati, ijod uslubi, til materiallaridan foydalana olish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur bo‘ ladi.

Natijalar va ularning tahlili

Fonostilistik, fonografik, grafik so‘ z o‘ yinlarining badiiy nutqda qo‘ llanishi alohida bir tizimni tashkil etadi. Taniqli yozuvchi Abdulla Qodiriy asaridan olingan quyidagi parchada ana shu fonetik hodisalardan biri so‘ z o‘ yiniga asos bo‘ lganligini ko‘ rishimiz mumkin:

Alqissa, kechag‘ i bag‘ daz isho qavmlarg‘ a so‘ zlang‘ an yer islohoti borasidag‘ i amru ma’rufdin bayon qilub, xoh mol, xoh mulk, alhosil, haqqi digarni evazsiz tasarrufotining ahli mo‘ minlarg‘ a haromlig‘ idin, ammo ahli badroqlar olsa javoizidin shammai izhor qildum. Amaldor faqirning fasohatnavoz so‘ zumdin tabassum qilub, so‘ radi: «Badroqlar kim deb o‘ ylaysiz?» – deb. Kamina aytdim: «Badroqning mag‘ noyi lug‘ aviysi shuldurkim, forsiyda «bad» deb yomon, ya’ni arabiy «habis»g‘ a ayturlar. «roq» deb turkiyda ismi tafzil va yoxud sig‘ ai mubolag‘ a kelur. «Badroq» – ya’ni turkiysi odamlarning yomonroqi degan so‘ zdur. Azbaski ahli mo‘ minlar har du jahon mas’uddurlar. Badroq o‘ sha yer islohotini chiqorg‘ on mastiravoylarning ismi xosidir. Haqqi digarni evazsiz tasarruf halolligi borasida Injili sharifda oyot va ahodis bo‘ lsa kerak?» – deganimda ul sarbarahnaning chehrasi buzildi... [4]

Yuqoridagi badiiy matnda ishlatilgan asosiy so‘ z o‘ yini **badroq** leksik birligida mujassamlashgan. Bu so‘ zning aslida «batrak» ko‘ rinishiga ega bo‘ lib, lug‘ aviy ma’nosiga ko‘ ra, yer-mulksiz dehqon degan tushunchani anglatadi. Adib asar qahramoniga xos bo‘ lgan xarakterli xususiyatlardan birini ochib berishda aynan shu so‘ zning uning tilida fonetik o‘ zgarishga uchragan shakli – «badroq»dan unumli foydalangan. Abdulla Qodiriy o‘ z ijodida bunga o‘ xshash *kamsomon (komsomol), bolishvoy (bolshevik), sersunnay (sherstyannoy), sabitiska (sovetskiy)* kabi o‘ nlab leksik birliklarning qahramonlar tilida fonetik o‘ zgarishga uchragan shakllaridan so‘ z o‘ yinlari hosil qilganini ko‘ rish mumkin.

Yana xuddi shunday holatni Anvar Obidjonning «Shiliqabiliq» hikoyasida ham kuzatish mumkin[5]. Hikoya nomi bo‘ lgan bu so‘ zning asli shakli shlakoblok ko‘ rinishiga ega bo‘ lsa-da, u qahramon tilida fonetik o‘ zgarishga uchrab, «shiliqabiliq» tarzida keltirilgan:

...Oxirgi so‘ z Lug‘ atxo‘ jayevning ichini chimchilab, birdan fig‘ oni falakka chiqdi. Qariyaning kekirtagiga ro‘ molcha tiqishdan o‘ zini zo‘ rg‘ a tiyib: «O‘ sha la’nati shiliqabiliq nima o‘ zi? Ko‘ rinishi qanaqa?» – deb uvvos soldi. Qariya uning jazavasiga pisandsiz boqib, shiliqabiliq degan narsa duvol qilib uriladigan kattakon, lekin yengilgina g‘ isht ekanligini tushuntirishga tirishdi.

– E-e, shlakoblok demaysizmi, gulpadar, – qariyaga burnini zambarakladi domla So‘ zpardoziy. – Anavi uzun binoni aylanib o‘ tib, o‘ ngroqqa qarab yursangiz, shlakoblok chiqaradigan kichik korxona bor.

– Odamni chalg‘ itib, nuqul shiliqabiliq deysiz! – arazlagan boladek ostki labini burishtirdi Lug‘ atxo‘ jayev.

– Shiliqabiliq-da! – o‘ rnidan turarkan, odatdagidek o‘ zinikini ma’qulladi qariya. – Shiliq etkizib duvolga bossang, biliq etib loyga yopishadi. Shuniyam bilmaganingdan keyin... Qariya, satqayi olimlik senlarga, degan ma’noda qo‘ l siltab qo‘ yib, beshiktervatardek lakki-lukki odimlab yo‘ lga tushdi.

– Shiliqabiliq, shiliqabiliq deyaverib, kallaniyam shiliqabiliq qip ketdi bu chol, – deya qorachig‘ i yonib sayroqilandi Lug‘ atxo‘ jayev, qariyaning ortidan xo‘ mrayarkan [6].

Yuqoridagi misollarda so‘ z o‘ yinini hosil qilgan leksik birliklar tarkibidagi fonetik o‘ zgarishlar tilshunoslik qoidalariga mos kelmay, ular nutqiy talablar asosida hosil qilingan maqsadli tovush o‘ zgartirishlardir. Shunga ko‘ ra,

bunday tovush o‘ zgartirishlarni til va nutq bosqichida baholash lozim bo‘ ladi. Bunda asosan tovush almashtirish, tovush tushirish kabi fonostilistik hodisalarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, yuqoridagi **badroq** so‘ zi tarkibida uchta tovush almashishi **t-d, a-o, k-q** hodisalari ro‘ y bergan va ma’no o‘ zgarishiga uchragan; *kamsomon* so‘ zida esa ikkita: **o-a, l-n** tovush almashishi; *bolishvoy* so‘ zida tovushlarning o‘ rin almashishi **sh-i** (bu o‘ rinda **ye-i** tovush almashishi ham bor), shuningdek, **i-o, k-y** kabi tovush almashishi hodisalari ham ro‘ y berganki, ular so‘ z ma’nosining o‘ zgarishiga olib kelgan va badiiy matndagi so‘ z o‘ yini asosida vujudga keluvchi kinoyaviy ohang hamda hazil-mutoyiba mazmunini ta’minlashga yordam bergan. Keyingi misolimizda keltirilgan *shiliqabiliq* leksik birligida esa tovushlarning o‘ rin almashishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi kabi hodisalar so‘ z o‘ yini unsurini shakllantirishga asos vazifasini o‘ tagan. Shuni e’tirof etish kerakki, yuqorida keltirilgan barcha misollarimiz olinma so‘ zlar: *batrak, komsomol, bolshevik, shlakoblok* kabi olinma so‘ zlar doirasida ro‘ y bergan bo‘ lib, ular asar qahramonlari nutqida qo‘ llangan va qahramon nutqining o‘ ziga xosligi, hajviy-yumoristik vaziyatning yuzaga kelishida muhim rol o‘ ynagan [7]. Shuningdek, bu leksik birliklar asosida so‘ z o‘ yinining qo‘ llanilishi qahramonlar dunyoqarashi va xarakteriga xos xususiyatlarning ochilishiga ham turtki bo‘ lgan.

Bu kabi fonostilistik so‘ z o‘ yinlari hodisasining yuzaga kelishida talaffuz va to‘ xtam alohida ahamiyatga ega. Intonatsiya barcha nutq uslublarida uchraydi. Ammo badiiy uslubda intonatsiyaning konnotativ ma’no ifodalash darajasi juda kuchlidir. Intonatsiya *lotincha* so‘ z bo‘ lib, baland tovush bilan talaffuz qilish, ohang demakdir. Intonatsiya nutq bo‘ laklarining sintaktik ma’nosi va hissiy bo‘ yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. U nutqda ovozning baland-pastligi, ohang orqali ro‘ yobga chiqadi. Nutq metodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg‘ u kabilar intonatsiyaning tarkibiy qismlari sifatida nutqiy faoliyatda turli subektiv maqsadlarni ifodalab kelishi mumkin. Bunday hollarda u birdan ortiq vazifa bajarib, so‘ z o‘ yinlari hosil qilishning fonostilistik vositasiga aylanadi [8]. Ana shunday vaziyatlarda pauzaning maqsadli qo‘ yilishi bilan aloqador turli yashirin ma’no-mazmunli so‘ z o‘ yinlari yuzaga keladi:

— Ha, sigir, yo‘ qoldimi?

Yo‘ q, sigir emas, ola ho‘ kiz edi. (A.Qahor «O‘ g‘ ri» hikoyasi)

Odam bo‘ l, akang kabi ahmoq bo‘ lma. // Odam bo‘ l akang kabi, ahmoq bo‘ lma.

Yuqoridagi har ikkala misolda intonatsiya va pauza o‘ zgarishi hisobiga gapning mazmuniy tomoni o‘ zgarib, nozik so‘ z o‘ yini yuzaga kelmoqda.

Intonatsiya so‘ z va gapning libosi bo‘ lib, u til va nutq birliklarining imkoniyatini ro‘ yobga chiqaradi. Bu o‘ rinda tilshunos olim V.Artemovning tajriba uchun keltirgan «sekin» (ostorojno) so‘ zining yigirma ikki xil intonatsiya bilan aytilishi imkoniyati borligi haqidagi fikrini eslash kifoya. Olim bu so‘ zning iltimos, hissiy iltimos, tasdiqlash, ogohlantirish, taklif, gina, sanash, qo‘ rqitish kabi bir qator ma’nolari borligini aytadi [9]. Ko‘ rinadiki, bir so‘ zning intonatsiyasini o‘ zgartirish orqali qo‘ shimcha bir necha ma’nolarni ifodalash va so‘ z o‘ yini hosil qilish mumkin.

Xulosa

Badiiy nutqda so‘ z o‘ yinlari matnning mazmunini boyituvchi, badiiy tasvirni kuchaytiruvchi va tinglovchi e’tiborini jalb qiluvchi asosiy vositalardan biridir. Ularning fonetik, leksik va semantik imkoniyatlardan foydalanishi badiiy nutqning stilistik rang-barangligini oshiradi hamda ekspressiv va estetik qatlamlarni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, turli badiiy asarlar misollari so‘ z o‘ yinlarining stilistik va estetik funksiyalarini aniq ko‘ rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопроси языкознания. Москва, 1983. №6, –С. 37.

2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Москва, 1990. –С. 103.

3. Бутунбаева Т. Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин мирзо шеъриятида палиндром ва сўз ўйини. TECH-FEST-21 International Multidisciplinary Conference. Hosted from Batumi, Georgia. October11th 2021. https://conferencea.org

4. Қодирий Абдулла. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 356.

5. www.ziyouz.com. kutubxonasi.

6. www.ziyouz.com. kutubxonasi.

7. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Фарғона, 2018. – 135 б.

8. Дўсматов Ҳ. Ўзбек миллий сўз ўйинларининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. док. (DSc) … дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 24 б.

9. Артемов В.А. К вопросу об интонации в русском язык. М., 1953.